

**SAMARQAND VILOYATIDA CHAKANA VA  
ULGURJI SAVDO  
TOVAR AYLANMASI**



*2022-yilning asosiy yillik  
ma'lumoti*




## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiyligi ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023-yil 1-yanvar holatiga viloyat bo'yicha chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **14 800** tani tashkil etib, (o'zgarish sur'ati **99,1 %**). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **42** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **14 758** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YaTTlar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

### Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2022-yilda viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **25 342,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan **113,5 %** ni tashkil etdi.

Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **4 890,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **117,3 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **20 451,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **112,7 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **2 124,3** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **105,2 %**) tashkil etdi.


**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami mlrd. so'm	2021- yilga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2021-yilga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021-yilga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	<b>25 342,5</b>	<b>113,5</b>	<b>4 890,6</b>	<b>117,3</b>	<b>20 451,9</b>	<b>112,7</b>
Samarqand sh.	9 126,5	112,0	4 314,4	109,4	4 812,1	114,6
Kattaqo'rg'on sh. tumanlar:	1 546,9	116,6	1,553	101,7	1 545,4	116,6
Oqdaryo	617,3	101,3	6,036	61,5	611,2	102,0
Bulung'ur	1 049,5	107,6	27,705	128,5	1 021,8	107,1
Jomboy	913,5	106,4	89,219	12,9 m.	824,3	96,8
Ishtixon	885,6	111,7	6,349	77,4	879,2	112,0
Kattaqo'rg'on	1 467,7	141,7	8,917	101,1	1 458,8	142,1
Qo'shrabot	440,7	103,7	5,087	98,1	435,6	103,7
Narpay	806,5	111,2	8,205	99,9	798,3	111,3
Payariq	955,7	107,5	7,660	73,2	948,0	107,9
Pastdarg'om	1 456,5	112,4	32,273	60,2	1 424,3	114,6
Paxtachi	508,6	110,0	7,076	91,9	501,5	110,4
Samarqand	1 655,3	128,4	312,292	9,9 m.	1 343,0	106,8
Nurobod	439,2	106,1	4,821	96,6	434,4	106,2
Urgut	2 788,9	112,1	42,222	107,9	2 746,7	112,1
Toyloq	684,1	116,1	16,821	2,3 m.	667,3	114,6


2022-yilning 2021-yilnga nisbatan Kattaqo'rg'on shahrida (**116,6 %**), Samarqand shahrida (**112,0 %**) va Kattaqo'rg'on tumanida (**141,7 %**), Samarqand (**128,4 %**), Toyloq (**116,1 %**), Urgut (**112,1 %**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

## YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi (mlrd.so'm)




So'nggi **6 yillikda** chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2021-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2020-yilning mos davriga nisbatan **114,2 %** ni yoki **21 035,6 mlrd. so'mni** tashkil qildi.

### Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida (foizda) (2022-yil)



2022-yilda o'sish sur'ati 113,5 % ni tashkil qildi.

## Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi, (foizda)



- Samarqand sh.
- Kattaqo'rg'on sh.
- Oqdaryo
- Bulung'ur
- Ishtixon
- Jomboy
- Naripay
- Kattaqo'rg'on
- Qo'shrabot
- Paxtachi
- Samarqand
- Payariq
- Nurobod
- Urgut
- Pastdarg'om
- Toyloq

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Samarqand shahri **36,0 %** bilan **9 126,5 mlrd. so'mni** tashkil etdi.


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, Nurobod tumani **1,7 %** bilan **439,2 mlrd. so'mni** tashkil etdi.

Viloyatning chakana savdo tovar aylanmasida yirik korxonalar Jomboy tumanida (**12,9 b.**), Toyloq (**2,3 b.**), Samarqand (**9,9 b.**) va Bulung'ur (**128,5 %**) tumanlarida yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **20 451,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan **12,7 %** ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **80,7 %** ni tashkil etdi.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atga ega hududlar(foizda)



### Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2021-yilga nisbatan **117,3 %** ni va **4 890,6** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **19,3 %** ulushiga to'g'ri keldi.

## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)

Samarqand viloyati	<b>19,3</b>	<b>80,7</b>
Samarqand sh.	<b>47,3</b>	<b>52,7</b>
Kattaqo'rg'on sh.	<b>0,1</b>	<b>99,9</b>
Oqdaryo	<b>1,0</b>	<b>99,0</b>
Bulung'ur	<b>2,6</b>	<b>97,4</b>
Jomboy	<b>9,8</b>	<b>90,2</b>
Ishtixon	<b>0,7</b>	<b>99,3</b>
Kattaqo'rg'on	<b>0,6</b>	<b>99,4</b>
Narpay	<b>1,0</b>	<b>99,0</b>
Nurobod	<b>1,1</b>	<b>98,9</b>
Payariq	<b>0,8</b>	<b>99,2</b>
Pastdarg'om	<b>2,2</b>	<b>97,8</b>
Paxtachi	<b>1,4</b>	<b>98,6</b>
Samarqand	<b>18,9</b>	<b>81,1</b>
Urgut	<b>1,5</b>	<b>98,5</b>
Toyloq	<b>2,5</b>	<b>97,5</b>
Qo'shrabot	<b>1,2</b>	<b>98,8</b>

■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Kattaq'org'on shahri (**99,9 %**) va Payariq (**99,2 %**), Kattaq'org'on (**99,4 %**), Ishtixon (**99,3 %**), Narpay (**99,0 %**) tumani yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **19,3 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahri (**47,3 %**), Samarqand (**18,9 %**), Jomboy (**9,8 %**), Bulung'ur (**2,6 %**) tumanlarida kuzatildi.

## AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

### Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Samarqand viloyati	<b>6 219,2</b>	111,1
Samarqand sh.	16 081,9	109,9
Kattaqo'rg'on sh.	16 669,3	114,6
tumanlar:		
Oqdaryo	3 694,0	99,1
Bulung'ur	5 371,3	105,4
Jomboy	5 002,7	103,9
Ishtixon	3 313,1	109,2
Kattaqo'rg'on	5 148,1	138,9
Qo'shrabot	3 197,8	101,6
Narpay	3 644,2	109,1
Payariq	3 625,5	105,0
Pastdarg'om	3 925,0	110,1
Paxtachi	3 413,2	108,6
Samarqand	6 263,0	125,8
Nurobod	2 783,5	103,9
Urgut	5 173,2	109,3
Toyloq	3 210,4	113,2


2022-yilga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **6 219,2** ming. so'mni (2021-yilga nisbatan **111,1 %** ni) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Samarqand shahri (**16 081,9** ming. so'm), Kattaqo'rg'on shahri (**16 669,3** ming. so'm) va Samarqand (**6 263,0** ming. so'm), Bulung'ur (**5 371,3** ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Viloyat bo'yicha 2022-yilda uyushmagan savdo tovar aylanmasi **2 124,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan **105,2 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12-bozor (oylik) va 12- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **673,5** mlrd. so'mni (**116,2** m.), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **1 450,8** mlrd so'mni tashkil etdi (**100,7 %**).

### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)




### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)



## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foizda



**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rirlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

## UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2021- yilga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2021-yilga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2021- yilga nisbatan, foizda
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>2 124,3</b>	<b>105,2</b>	<b>673,5</b>	<b>116,2</b>	<b>1 450,8</b>	<b>100,7</b>
Samarqand sh.	130,1	2,1 m.	124,2	154,0	5,9	2,5 m.
Kattaqo'rg'on sh. tumanlar:	372,5	154,4	72,9	181,6	299,6	81,1
Oqdaryo	128,6	102,6	15,0	91,5	113,6	105,7
Bulung'ur	174,3	94,2	53,4	59,5	120,9	123,7
Jomboy	175,1	100,6	83,8	170,4	91,3	74,0
Ishtixon	134,2	114,7	31,3	2,4 m.	102,9	98,4
Kattaqo'rg'on	158,3	78,7	49,5	80,4	108,8	101,4
Qo'shrabot	102,6	100,7	13,2	88,0	89,4	104,3
Narpay	33,1	39,2	27,1	104,9	6,0	2,3 m.
Payariq	169,2	75,7	43,9	62,6	125,3	105,2
Pastdarg'om	100,4	88,1	15,2	134,9	85,2	123,2
Paxtachi	86,6	94,6	32,7	132,0	53,9	87,8
Samarqand	53,3	142,2	4,9	196,3	48,4	137,8
Nurobod	87,3	86,0	30,6	77,3	56,7	111,5
Urgut	113,4	98,1	49,5	195,5	63,9	119,4
Toyloq	105,3	2,4 m.	26,3	184,8	79,0	149,8

\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdag'i tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2022-yilda viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 673,5 mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (**281,3** mlrd.so‘m) to‘g‘ri keldi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari	Mlrd. so‘m
	<b>Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari</b> <b>281,3</b>
	<b>Non va non mahsulotlari</b> <b>71,7</b>
	<b>Don mahsulotlari</b> (mosh, loviya, guruch va boshqalar) <b>86,7</b>
	<b>Tovuq go‘shti</b> <b>47,6</b>
	<b>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari</b> (yongoq, bodom, pista va boshqalar) <b>53,0</b>
	<b>Sut va sut mahsulotlari</b> (sir, brinza,...) <b>27,5</b>
	<b>Tuxum</b> <b>34,5</b>
	<b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</b> <b>22,8</b>
	<b>Ziravorlar</b> <b>28,1</b>
	<b>Tuzlamalar</b> <b>15,1</b>
	<b>Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari</b> (manzarali va qishloq xo‘jaligi) <b>5,2</b>
	<b>Nooziq-ovqat tovarlari</b> <b>0,0</b>

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2022-yilda viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o’tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **1 450,8** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagি qoramollar savdosi **1 189,8** mlrd. so‘m, qo‘y va echkilar – **196,5** mlrd. so‘mni, otlar – **57,1** mlrd. so‘mni, parrandalar – **7,4** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)	Mlrd. so‘m
 2 yoshdan kata bo‘lgan qoramollar	694,5
 1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	336,7
 1 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	158,6
 Qo‘ylar	161,5
 Otlar	57,1
 Echkilar	35,0
 Kurka, o‘rdak, g‘oz	1,9
 Tovuqlar	5,5
 Quyonlar	0,0
 Qushlar	0,0

# UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2023-yil 1-yanvar holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **4 139** tani tashkil etib, o'sish sur'ati **118,5 %** ni tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **9** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **4 130** tani tashkil qildi.


2022-yilda ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **844,4** mlrd. so'mni (**120,4 %** ni) tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan **20,4 %** ga ko'paydi. Bunda savdo aylanmasining **74,3 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2021- yilga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2021- yilga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2021- yilga nisbatan, foizda
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>844,4</b>	<b>120,4</b>	<b>217,1</b>	<b>100,8</b>	<b>627,3</b>	<b>129,0</b>
Samarqand sh.	435,6	119,5	72,7	86,9	362,9	129,2
Kattaqo'rg'on sh. tumanlar:	19,4	117,4	-	-	19,4	117,4
Oqdaryo	3,7	108,0	-	-	3,7	108,0
Bulung'ur	19,3	136,4	8,3	140,4	11,0	133,6
Jomboy	14,3	100,6	-	-	14,3	100,6
Ishtixon	4,9	105,4	-	-	4,9	105,4
Kattaqo'rg'on	10,9	88,6	-	-	10,9	88,6
Qo'shrabot	7,6	117,4	-	-	7,6	117,4
Narpay	9,7	128,5	-	-	9,7	128,5
Payariq	10,2	116,5	-	-	10,2	116,5
Pastdarg'om	76,0	154,4	18,9	105,6	57,1	182,3
Paxtachi	9,9	71,8	-	-	9,9	71,8
Samarqand	45,4	179,3	-	-	45,4	184,8
Nurobod	8,4	152,0	-	-	8,4	152,0
Urgut	23,8	96,4	-	-	23,8	97,2
Toyloq	145,3	111,3	117,2	109,5	28,1	119,6

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2022-yilga avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45-bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **2 290,9** mld. so'mni tashkil etib, o'tkan yilning mos davriga nisbatan **115,9** % ni tashkil qildi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **373,9** mld. so'm (o'sish sur'ati- **71,6** %), kichik biznes va xususiy tadbirdorlik subyektlari savdo hajmi – **1 916,9** mld. so'mni (o'sish sur'ati – **131,98** %) tashkil qildi.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'ish sur'ati, foizda



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

### Hududlar kesimida ma'lumot




	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>2 290,9</b>	<b>100</b>
Samarqand sh.	1 703,977	74,4
Kattaqo'rg'on sh. tumanlar:	17,728	0,8
Oqdaryo	9,812	0,4
Bulung'ur	19,378	0,8
Jomboy	1,415	0,1
Ishtixon	16,106	0,7
Kattaqo'rg'on	14,789	0,6
Qo'shrabot	1,221	0,1
Narpay	15,941	0,7
Payariq	2,088	0,1
Pastdarg'om	0,362	0,02
Paxtachi	11,035	0,5
Samarqand	51,999	2,3
Nurobod	26,038	1,1
Urgut	1,404	0,1
Toyloq	397,570	17,3

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Samarqand shahri (**1 704,0** mlrd. so'm), Toyloq (**397,6** mlrd. so'm) va Samarqand (**52,0** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2022-yilda ulgurji savdo tovar aylanmasi **12 954,1** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan **23,8 %** ga o‘sdi.



### Savdo aylanmasi ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **9 960,3** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2021-yilning mos davriga nisbatan **124,8 %**ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **76,9 %** ni tashkil qildi.

# ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK KORXONALAR

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Samarcand shahrida (**121,6 %**), Kattaq'org'on shahrida (7,5 b.), Jomboy (180,3 b.), Toyloq (3,0 b.), Bulung'ur (101,9 %) va Samarcand (438,7 b.) tumanlarida kuzatildi.

2023-yil 1-yanvar holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **3 078** tani tashkil etib, o'sish sur'ati **124,5 %** ni tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **41** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **3037** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2021- yilga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2021-yilga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2021- yilga nisbatan, foizda
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>12 954,1</b>	<b>123,8</b>	<b>2 993,9</b>	<b>120,9</b>	<b>9 960,3</b>	<b>124,8</b>
Samarqand sh.	8 146,8	118,4	2 148,6	121,6	5 998,2	117,2
Kattaqo'rg'on sh. tumanlar:	368,9	141,4	5,7	7,5 m.	363,2	139,6
Oqdaryo	103,0	100,5	-	-	103,0	101,1
Bulung'ur	385,4	108,6	287,0	101,9	98,4	134,3
Jomboy	226,3	108,1	37,7	180,3 m.	188,6	90,2
Ishtixon	114,9	126,1	-	-	114,9	127,9
Kattaqo'rg'on	251,0	185,2	0,9	68,3	250,1	186,3
Qo'shrabot	42,6	2,5 m.	0,2	66,9	42,4	2,5 m.
Narpay	175,5	3,7 m.	0,7	81,9	174,8	3,8 m.
Payariq	83,8	152,4	-	-	83,8	154,7
Pastdarg'om	546,6	80,5	123,0	34,6	423,6	130,8
Paxtachi	30,8	120,8	0,8	57,5	30,0	124,4
Samarqand	1 002,6	143,7	199,7	438,7 m.	802,9	115,2
Nurobod	102,6	150,0	0,2	63,0	102,5	150,3
Urgut	662,4	154,1	-	-	662,4	154,4
Toyloq	710,9	176,9	189,4	3,0 m.	521,5	154,3



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi**  
**Тел. 66-235-65-80**